

“ABULFAYZZXON” DRAMASINING BADIY TASVIR VOSITALARI USTIDA ISHLASH

Zakirova Maqsuda Atayevna

UrDU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Har bir asarning badiiy qimmatini oshirishda badiiy tasvir vositalarining o`rni beqiyosdir. Ushbu maqolada “Abulfayzxon” dramasi badiiy tasvir vositalari tahlili yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: “Abulfayzxon”, drama, tashbeh, o`xshatish, konflikt.

“Abulfayzxon” tragediya janrida, tarixiy mavzuda yaratilgan asar bo`lsa-da, unda bir qator badiiy san`atlarning mahorat bilan qo`llanilganiga guvoh bo`lish mumkin.

Ma`lumki, mumtoz poetikada “tashbih”, zamonaviy o`zbek terminologiyasida “o`xshatish” degan istiloh bilan yuritiladigan tasviriy vosita, ya`ni tashbehlarni so`zlashuv nutqida ham, publististikada ham, barcha adabiy janrlar va hatto ilmiy uslubda ham uchratish mumkinki, bu mazkur badiiy san`at qo`llanish doirasining kengligi, katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko`rsatadi.

“Abulfayzxon” tragediyasining oxirida Xayolning *taxtga qarab*: “Ey, qop – qora saodat sensan,... ey qora kuch, ey qurib ketgur taxt! Hech gunohi bo`lmag`an bolalardan, tog` kabi yigitlardan millionchalari sen uchun qurbon bo`lib ketarlar” deyishi alohida e`tiborni tortadi. Bu “tog` kabi yigitlar” tashbehi orqali Fitrat taxtning vahshiy qudratini ko`rsatishga xizmat qildirilgan.

Xususan, dramada Ulfatning tilidan aytilgan “Podsholik qon bilan sug`orilgan og`ochdir” gapida podsholikning, taxtning qon bilan sug`oriladigan daraxtga o`xshatilgani juda ta`sirchan chiqqan.

Mubolag`alar frazeologik ibora, maqol yoki qolip jumlar ko`rinishida bo`lib, og`zaki so`zlashuvda keng qo`llanadi. Tilning eng go`zal va nozik gavharlari xalq ichida ekanligini teran anglagan va ularni yig`ib adabiy tilga kiritilishi tashabbusi bilan chiqqan Fitrat ulardan o`z asarlarida foydalanmasligi mumkin emas edi. Buni Fitrat dramalaridagi mubolag`alar xususida ham aytish mumkin.

Dramada ritorik so`roq orqali ifoda etilgan tajohuli orifona san`atining ham o`rni ko`rinib turadi. Masalan: “Tinchlik saqlamoq bahonasi bilan millionlarcha inson ko`masini chuqurdan chuqurga yumalutmog`ingning zamoni hanuzgacha bitmadimi?”.

«Abulfayzxon»ning badiiy qimmatini shundaki, Fitrat asarda shekspirona qabartma tip va xarakterlarni yaratdi, zulmga asoslangan saltanat tojining otadan bolaga o`tib kelishi natijasida paydo bo`luvchi qonli oqibatlarni haqqoniy tasvirladi. Fitrat bu asari bilan o`zbek adabiyotida tragediya janriga asos solib, mazkur janrning asosiy tamoyillarini belgilab berdi.

“Abulfayzxon” tragediyasidagi tugun bir sulola o`rnini ikkinchi bir sulola egallashi bilan yechilgandek, konfliktlar hal bo`lgandek ko`rinsa-da, asosiysi bu emas. Voqealar rivoji va qahramonlar taqdiri hokimiyatni Abulfayzxondan – ashtarxoniyatlardan zo`rlilik bilan tortib olgan Rahimbiylar – mang`itlarning ham

tanazzuli muqarrar ekanligidan dalolat beradi. Zohiran, Abulfayzxon saltanatining yemirilishi, bu saltanat tarafdorlari ko'pchiligining halok bo'lishi, botinan esa, ashtarxoniylar ustidan g'alaba qozongandek bo'lib ko'ringan Rahimbiy hokimiyatining ham tanazzuli muqarrarligi, zulm va zo'rlik saltanati ustida Xayol tomonidan o'qilgan aybnoma ana shunday "chilparchin" bo'lishdir.

Ko'rinadiki, "Abulfayzxon" tragediyasi konfliktning xarakteri, xarakterlar talqini, tragik vaziyat, yechim va boshqa barcha talablariga ko'ra chinakam tragediyaning barcha talablariga javob bera oladigan asardir.

Shundan kelib chiqqan holda tragediyadagi voqealar rivoji va asosiy g'oya alohida bir tarzda ilgari suriladi. Ibrohimbiy qadimgi dushmani Abdullaxonni u dunyoga jo'natgani uchun Rahimbiyga salovat aytmaydi, uning ham boshiga bir kun Abdullaxonning "Siz bo'lg'onda Abdullaxonni tushurgach, qurultoy chaqirar edim. Yangi xon bilan uning otalig'ini el boshliqlarining kengashlari bilan belgilar edim", – deb javob beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, "Abulfayzxon" tragediyasi janriy va poetik jihatdan puxta o'ylanib yaratilgan mukammal asardir. Fitratning yaxshi asarlari qatoridan o'rin olgan "Abulfayzxon" pyesasi adabiyotimizda tarixiy mavzuda yozilgan birinchi drama hisoblanadi. Fitrat adabiy-badiiy ijodining cho'qqisi hisoblangan mazkur fojia voqea mazmuni va tarixiy faktlarga boy, real asar bo'lishi bilan jozibalidir. Uning hozirgi kun uchun ham har tomonlama ahamiyati katta. Pyesada ashtarxoniylar sulolasining so'nggi vakili Abulfayzxon davrida Buxoro o'lkasida yuz bergan fojia aks ettiriladi. Asarda Abulfayzxonning toj-taxtga da'vogarlik qilgan barcha merosxo'rlar otasi, og'a-inilari, yaqin va uzoq qarindosh-urug'larini o'ldirib, hokimiyat sari kelishi katta badiiy kuch bilan gavdalantirilgan. Buxoro taxtini qo'lga kiritgan Abulfayzxon shubha va ta'qib vasvasiga tushib, hokimiyatni qo'lga kiritishga ko'maklashgan ishonchli safdoshlari, o'ziga sadoqatli jangchi lashkarboshilarni, viloyat hokimlarini qirg'in qilishga kirishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. Ilmiy-tadqiqiy maqolalar. – T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 285 b.
2. Boltaboyev H. Qadimgi turkiy manbalar Fitrat talqinida. So'zboshi // Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari.–T.: Mumtoz so'z, 2008.– B.3-9.
3. Karimov N. Istiqlolni uyg'otgan shoir. – T.: Ma'naviyat, 2000. – 88 b.
4. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: O'zbekiston, 2008. – 532 b.
5. Umarova M. Fitratning "Abulfayzxon" fojiasida badiiy vaqt talqini // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2009. – 4-son. – B. 34-46.
6. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – T.: O'qituvchi, 1995. – B.82-83.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildlik. IV jild. – T.: O'zME, 2008. – 608 b.
8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Harfi F. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – B.171-172.
9. Qosimov B. Fitrat // Maslakdoshlar: Behbudiy, Ajziy, Fitrat. – T.: Sharq,
10. G'aniyev I. Fitrat va fitratshunoslik. – T.: Fan, 2005. – B.71.
11. <https://netref.ru/zbekiston-respublikasi-olij-va-rta-mahsus-talim-vazirligi-arsh.html?page=3>
12. www.hozir.org/o'zbek-jadid-adabiyoti.html